

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 72 (1133), 2024-yil 16-aprel, seshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



yuz



MARKAZIY OSIYO — KO‘RFAZ ARAB DAVLATLARI XALQLARI O‘RTASIDAGI KO‘P ASRLIK TARIXIY ALOQALARNING YANGI DAVRI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 15-aprel kuni “Markaziy Osiyo — Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi” strategik muloqoti tashqi ishlar vazirlarining ikkinchi uchrashuvi doirasida mamlakatimizga kelgan Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o‘rinbosari, tashqi ishlar vaziri Rashid Meredov, Qatar Davlati Bosh vaziri, tashqi ishlar vaziri shayx Muhammad bin Abdurahmon Ol Soniy boshchiligidagi delegatsiya, Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vaziri shahzoda Faysal bin Farxon Ol Saud, O‘mon Sultonligi tashqi ishlar vaziri Badr bin Hamad al-Busaydiy boshchiligidagi delegatsiya, Kuvayt Davlati tashqi ishlar vaziri Abdulla al-Yahyo boshchiligidagi delegatsiya, Bahrayn Podshohligi tashqi ishlar vaziri Abdullatif bin Rashid al-Zayaniy boshchiligidagi delegatsiya, Birlashgan Arab Amirliklari energetika va infratuzilma vaziri Suhayl al-Mazruiy boshchiligidagi delegatsiya, Ozarbayjon Respublikasi tashqi ishlar vaziri Jayxun Bayramov va Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi bosh kotibi Jasim bin Muhammad al-Budayviyni qabul qildi.



Turkmaniston Vazirlar Mahkamasi Raisining o‘rinbosari, tashqi ishlar vaziri Rashid Meredov suhbat avvalida davlatimiz rahbariga Turkmaniston Prezidenti Serdar Berdimuhamedov va Turkman xalqining milliy yetakchisi, Xalq Maslahati Raisi Gurbanguli

O‘zaro tovar ayirboshlash o‘sayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi. “Shovot — Toshovuz” savdo zonasi tashkil etilmoqda. Sanoat kooperatsiyasi, energetika, transport va logistika, qishloq xo‘jaligi sohalarida o‘zaro manfaatli hamkorlik davom etmoqda.

likning yangi kun tartibini shakllantirish masalalariga alohida e‘tibor qaratildi.

Mintaqaviy va xalqaro ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan ham fikr almashildi.

Qatar Bosh vaziri Muhammad Ol Soniy O‘zbekiston yetakchisiga Qatar Amiri



Davlatimiz rahbari siyosiy muloqot jadal tus olgani, o‘zaro savdo va investitsiyalar hajmi faol oshayotganini mamnuniyat bilan qayd etdi.

Qatarning yetakchi kompaniyalari ishtirokida yirik investitsiya loyihalari amalga oshirilmoqda. Madaniy-gumanitar

Transafg‘on temir yo‘lini qurish loyihasini amalga oshirishni jadallashtirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Mintaqaviy kun tartibidagi masalalar, shu jumladan, Yaqin Sharqdagi vaziyatning jiddiy keskinlashayotgani yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘zbekiston bilan Saudiya Arabistoni o‘rtasidagi ko‘p qirrali munosabatlarni va keng ko‘lamli sheriklikni oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish nuqtayi nazaridan yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Bugungi kunda turli darajalarda faol



Berdimuhamedovning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O‘zbekiston bilan Turkmaniston o‘rtasidagi do‘stlik, yaxshi qo‘shnichilik va chuqurlashgan strategik sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari ko‘rib chiqildi.

Hududlararo aloqalar va madaniy-gumanitar almashinuvlar kengaymoqda. Joriy yilda O‘zbekistonda shoir Maxtumquli Firog‘iy tavalludining 300 yilligi munosabati bilan qator tadbirlar o‘tkaziladi.

Bo‘ljak oliy darajadagi uchrashuvlarga tayyorgarlik doirasida ko‘p qirrali sherik-

Tamim bin Hamad Ol Soniyning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ikki tomonlama hamkorlikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiyot, investitsiya va transport-kommunikatsiya sohalarida yanada kengaytirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.



tadbirlar o‘tkazilmoqda. Oktyabr oyida O‘zbekistonda Qatar madaniyati haftaligi bo‘lib o‘tadi.

Qo‘shma investitsiya loyihalarini ilgari surish, ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlashning samarali mexanizmlarini tezroq yaratish muhimligi qayd etildi.

Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vaziri shahzoda Faysal bin Farxon Ol Saud O‘zbekiston yetakchisiga Podshoh Salomon bin Abdulaziz Ol Saud va Valiahd, Bosh vazir Muhammad bin Salmon Ol Saudning samimiy salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

muloqotlar va delegatsiyalarning o‘zaro tashriflari davom etmoqda. O‘zaro savdo hajmi, qo‘shma korxonalar va aviaqatnovlar soni oshib bormoqda.

► Davomi 2-beta

ISHONCHLI MULOQOT VA TENG HUQUQLI SHERIKLIK PLATFORMASI

Toshkentda “Markaziy Osiyo — Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi” strategik muloqoti tashqi ishlar vazirlarining ikkinchi uchrashuvi bo‘lib o‘tdi.

Anjumanda O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston, Bahrayn, Qatar, Kuvayt, BAA, O‘mon va Saudiya Arabistoni tashqi ishlar vazirlari ishtirok etdi.

O‘zbekiston, xususan, Toshkent shahri, Markaziy Osiyo va Ko‘rfaz arab davlatlari xalqlari o‘rtasidagi ko‘p asrlik tarixiy aloqalar, madaniy almashinuvlar va bugungi kunda o‘zaro manfaatli hamkorlik uchun

ulkan salohiyatga asoslangan mintaqalararo bog‘liqlikning yangi formatiga amaliy sur‘at bag‘ishlaydigan manzilga aylanmoqda.

— “Markaziy Osiyo — Ko‘rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi” strategik muloqoti mamlakatlarimiz o‘rtasidagi hamkorlikni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi, — dedi O‘zbekiston Respublikasi tashqi ishlar vaziri Baxtiyor Saidov. — Muloqot formatining Markaziy Osiyodagi ilk davrasi

O‘zbekiston zaminida bo‘lib o‘tayotgani, ikki strategik muhim mintaq — Markaziy Osiyo va Ko‘rfaz o‘rtasidagi sheriklikni yanada mustahkamlashga qaratilgan hamjihatligimiz va qat‘iyatimizning yaqqol tasdig‘idir. Bu, eng avvalo, hamkorligimizning kun tartibini muhokama qilish, 2023-yil Jidda shahrida bo‘lib o‘tgan birinchi sammitda erishilgan kelishuvlarni birgalikda amalga oshirish, xalqaro va mintaqaviy dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashish uchun qulay imkoniyatdir.

► Davomi 2-beta

2024-YIL — YOSHLAR VA BIZNESNI QO‘LLAB-QUVVATLASH YILI

O‘ZBEKISTON TAJRIBASI

yoxud yoshlar siyosati sohasida shiddat bilan rivojlanayotgan mamlakat

Yurtimizda bundan bir asrdan ko‘proq vaqt avval asos solingan jadidchilik harakati mohiyatiga e‘tibor qaratsak, ulug‘ ajdodlarimiz hurlik va taraqqiyotni ilm-ma‘rifatning, ta‘lim-tarbiyaning zamirida ko‘rganini anglaymiz. Mutafakkir Mahmudxo‘ja Behbudiy “Turkiston bolalarini ilmsiz qo‘ymang, ozodlik yo‘lini ko‘rsating”, deb xitob qilganida ayni shu maqsadni nazarda tutadi. Bugun ham yangi O‘zbekistonda buni etishda yoshlar masalasiga, ularning ta‘lim-tarbiyasi va istiqboliga alohida e‘tibor qaratilayotgani bejiz emas.

► Davomi 3-beta





MARKAZIY OSIYO – KO'RFAZ ARAB DAVLATLARI XALQLARI O'RTASIDAGI KO'P ASRLIK TARIXIY ALOQALARNING YANGI DAVRI

Boshlanishi 1-betda

“Yashil” energetika, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, transport infratuzilmasini modernizatsiya qilish, IT va boshqa ustuvor sohalarda kooperatsiya loyihalari boshlangan.

Bo'lajak tadbirlar, shu jumladan, 2025-yilda o'tkaziladigan “Markaziy Osiyo — Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi” muloqotining ikkinchi sammitiga puxta tayyorgarlik ko'rish masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Bundan tashqari, mintaqaviy kun tartibidagi boshqa masalalar, xususan, Afg'onistondagi vaziyat va Falastin muammosini tinch yo'l bilan hal etish yuzasidan fikr almashildi.

O'mon Sultonligi tashqi ishlar vaziri Badr bin Hamad al-Busaydi davlatimiz rahbariga O'mon Sultoni Haysam bin Toriq Ol Saidning samimiy salomi va tilaklarini yetkazdi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlikni kengaytirish, eng avvalo, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy sohalaridagi salohiyatini samarali ro'yobga chiqarish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan qo'shma investitsiya kompaniyasining loyihalar portfelini kengaytirish muhim ekani qayd etildi.

Bank sohasini rivojlantirish, raqamli texnologiyalar, energetika, sanoat, qishloq xo'jaligi, ta'lim kabi ustuvor yo'nalishlarda yangi loyiha va dasturlarni amalga oshirish taklif qilindi.

O'zaro muloqotlarni va hamkorlikning institutsional mexanizmlarini faollashtirish — siyosiy maslahatlashuvlar, Hukumatlararo komissiya yig'ilishlari, biznes-forumlari va ko'rgazmalarni muntazam o'tkazib borish zarurligi ta'kidlandi.

Mintaqaviy, shu jumladan, 2011-yilgi Ashxobod kelishuvlari doirasidagi hamkorlik masalalari yuzasidan fikr almashildi.

Kuvayt Davlati tashqi ishlar vaziri Abdulla al-Yahyo O'zbekiston yetakchisiga Kuvayt Amiri

shayx Mish'al as-Sabohning samimiy salomi va tilaklarini yetkazdi.

Ikki mamlakat o'rtasidagi konstruktiv siyosiy muloqotni davom ettirish, savdo-iqtisodiy, moliya-investitsiyaviy va gumanitar hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

O'zaro tashriflarni faollashtirish, madaniy va turizm almashinuvlariga oid dasturlarni amalga oshirish, yetakchi kompaniyalar ishtirokida, shu jumladan, Kuvayt arab iqtisodiy taraqqiyot fondi bilan yaqin hamkorlik doirasida hamda Kuvayt investitsiya agentligi bilan samarali sheriklikni yo'lga qo'yish orqali ustuvor tarmoqlardagi investitsiya loyihalarni ilgari surish zarurligi qayd etildi.

Yaqin fursatda ikki tomonlama siyosiy maslahatlashuvlar, qo'shma Hukumatlararo komissiyaning birinchi yig'ilishi va biznes-forumini o'tkazish muhim ekani ta'kidlandi.

Mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Bahrayn Podshohligi tashqi ishlar vaziri Abdullatif bin Rashid al-Zayani davlatimiz rahbariga Podshoh Hamad bin Iso Al-Xalifaning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

O'zbekiston bilan Bahrayn o'rtasidagi ko'p qirrali sheriklikni yanada rivojlantirish va kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi.

Siyosiy muloqotni faollashtirish hamda siyosiy maslahatlashuvlar mexanizmini tez fursatda ishga tushirish muhimligi qayd etildi.

Savdo-iqtisodiy hamkorlik, bank-moliya, avtomobil va temir yo'li qurilishi, energetika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va boshqa ustuvor yo'nalishlardagi dastur va loyihalarni ilgari surish uchun katta salohiyat va keng imkoniyatlar mavjudligi ta'kidlandi.

Shu maqsadda joriy yilda qo'shma Hukumatlararo qo'mitaning ilk yig'ilishini o'tkazish hamda O'zbekiston va Bahrayn yetakchi kompaniyalari vakil-

lari ishtirokida Ishbilarmonlar kengashini ta'sis etish rejalashtirilgan.

Xalqaro kun tartibi, shu jumladan, xavfsizlikka zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashish masalalari yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekiston yetakchisi Bahrayn tashqi ishlar vazirini qutlug' yoshi bilan muborakbod etib, unga mustahkam sog'liq va katta muvaffaqiyatlar tiladi.

Birlashgan Arab Amirliklari energetika va infratuzilma vaziri Suhayl al-Mazruiy uchrashuv avvalida davlatimiz rahbariga BAA Prezidenti Shayx Muhammad Ol Nahayon, vitse-prezidenti Bosh vaziri, Dubai amiri Shayx Muhammad Ol Nahayon, vitse-prezidenti Shayx Mansur Ol Nahayon va Abu-Dabi amirligi Valiahdi Shayx Holid Ol Nahayonning salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Ustuvor yo'nalishlardagi amaliy hamkorlikni yanada kengaytirish masalalari atroflicha ko'rib chiqildi.

O'zbekiston va Amirliklar o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlikning bugungi yuksak darajasi katta mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zaro tovar ayirboshlash hajmi barqaror oshib bormoqda. O'zbekistonda Amirliklar sarmoyasi ishtirokida 300 dan ziyod korxonalar faoliyat yuritmoqda. Qo'shma loyihalar portfeli 4 milliard dollardan oshgan.

“Yashil” energetika, metallurgiya, qishloq xo'jaligi, transport va kommunikatsiya kabi tarmoqlarda istiqbolli loyihalarni ishlab chiqish va ilgari surish muhimligi ta'kidlandi.

Transafg'on temir yo'lining texnik loyihagini tayyorlash va qurilishini boshlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Bo'lajak oliy darajadagi tadbirlar rejasini ham ko'rib chiqildi.

Ozarbayjon Respublikasi tashqi ishlar vaziri Jayxun Bayramov uchrashuv avvalida davlatimiz rahbariga Ozarbayjon Prezidenti Ilhom Aliyevning salomi va ezgu tilaklarini yetkazdi.

ISHONCHLI MULOQOT VA TENG HUQUQLI SHERIKLIK PLATFORMASI

Boshlanishi 1-betda

Uchrashuvda erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish, xavfsizlik, savdo-iqtisodiy, investitsiya, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar va atrof-muhitni himoya qilish yo'nalishlarida hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

— “Markaziy Osiyo va Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi” strategik muloqoti tashqi ishlar vazirlarining ikkinchi uchrashuvini o'tkazishdan maqsad kelgusi yili Samarqand shahrida bo'lib o'tadigan “Markaziy Osiyo — Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi” formatidagi ikkinchi oliy darajadagi sammitga tayyorgarlik ko'rishdan iborat, — dedi Ko'rfaz arab davlatlari hamkorlik kengashi bosh kotibi Jasim bin Muhammad al-Budayyiv. — Ya'ni bo'lajak yig'ilish yana bir muvaffaqiyatli sammitga poydevor qo'yish vazifasini o'tamoqda. Yana bir muhim jihati, Ko'rfaz arab davlatlari Markaziy Osiyo davlatlari bilan o'zaro yaxshi munosabatda ekanligidir.

Toshkent uchrashuvi, shubhasiz, tomonlar bir-birining salohiyatini to'liq ro'yobga chiqarish yo'lidagi navbatdagi qadam bo'lib, jadal rivojlanayotgan ikki mintaqadagi davlatlari o'rtasidagi o'zaro tushunish, ishonchli muloqot va teng huquqli sheriklik platformasini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Vazirlar dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar, xususan, Afg'oniston, Yaqin Sharqdagi vaziyat va boshqa bir qator mavzular bo'yicha ham atroflicha fikr almashdi.

Yig'ilish yakuni bo'yicha Qo'shma bayonot qabul qilindi va ommaviy axborot vositalari uchun brifing tashkil etildi.

O'ZA

O'ZA

Biz va dunyo

“GSP+” TIZIMIGA A'ZOLIKNING NAVBATDAGI MUDDATGA UZAYTIRILISHI ISLOHOTLARNING YUKSAK E'TIROFIDIR

Germaniya iqtisodiyot sharqiy qo'mitasi hududiy direktori, Markaziy Osiyo davlatlari bo'yicha ekspert Eduard Kinsbrunner O'zbekiston Yevropa Ittifoqining “GSP+” dasturiga qo'shilganiga uch yil to'lishi munosabati bilan “Dunyo” AA uchun eksklyuziv intervyu berdi.

— “GSP+” dasturi dunyo mamlakatlari ekspert salohiyatini ko'tarishga imkoniyat yaratadigan eng yaxshi vositalardan biridir. Ushbu imtiyoz O'zbekistonga 6 mingta tovarni YI bozorlariga butunlay yoki qisman bo'xona to'lovlarisiz olib kirish huquqini beradi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotiga katta foyda keltirmoqda. O'zbekistonda Shavkat Mirziyoyev Prezidentlikka saylanishi bilan mamlakatda iqtisodiy, siyosiy va jamiyoti-siyosiy sohalarida keng qamrovli, ulkan islohotlar boshlandi. Oradan 5-yil o'tib, ya'ni 2021-yilda O'zbekiston YIning “GSP+” maxsus bitimiga qo'shildi.

Ushbu maqomning yana bir e'tiborli jihati shundaki, u nafaqat iqtisodiy, balki siyosiy-ijtimoiy sohalaridagi islohotlar bo'yicha ham hamkorlikka yo'naltirilgan. O'zbekistonning “GSP+” dasturiga qo'shinishi bo'yicha taqdim qilgan arizasiga Yevropa Komissiyasining muddatidan oldin ijobiy qarori ham bejiz emas, deb o'ylayman. Chunki Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida barcha sohalarida boshlangan tub va ulkan islohotlar mamlakatning xalqaro maydonida e'tirof etilishiga sabab bo'lmoqda hamda bugun yurtingiz bu yo'ldan katta ishonch, sobiqqadamlilik bilan odinlamoqda.

Ta'kidlaganimdek, Yevropa bozorida 6 ming 200 turdagi tovarga nisbatan ushbu imtiyoz qo'llanilishi, aslida, O'zbekistonda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning deyarli barchasi bundan foydalanishi mumkinligini anglatadi.

Mamlakatning YI va Germaniyaga ekspert ko'lamli mazkur dasturga a'zolikka qadar bo'lgan davrga nisbatan keskin oshgan. Biroq mahsulotlarning mamlakat ichida puxta qayta ishlalishi ham katta ahamiyat kasb etadi. Masalan, paxta xomashyosini oladigan bo'lsak, hozirgi kunda uning katta qismi mamlakatning o'zida to'qimachilik sohasida qayta ishlanib, xorijga tayyor mahsulot sifatida sotilmoqda. Bu, o'z navbatida, xorijiy investorlar va kompaniyalar uchun O'zbekistonda yanada jozibador ishlab chiqarish bozoriga aylantirmoqda.

“GSP+” imtiyozlar dasturi navbatdagi muddatga uzaytirilgani O'zbekiston uchun ikki tomonlama katta foyda keltiradi. Bu, bir tomondan, mamlakatdagi islohotlarni yanada

chuqurlashtirish va izchil davom ettirishni rag'batlantiradi, boshqa tomondan, mamlakat iqtisodiyoti va mahalliy tadbirkorlarga mahsulot sifatini yaxshilab, ekspert salohiyatini oshirish hamda yangi bozorlarni zabt etish imkoniyatini taqdim etadi.

“GSP+” imtiyozlar tizimi islohotlar o'tkaziladigan mamlakatlarga nisbatan qo'llaniladi. O'zbekiston nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun dunyo miqyosida ham mamlakat bozorining ochilishi, isloh qilinishi uning iqtisodiyotiga qanchalik ijobiy ta'sir etishini o'z tajribasida ko'rsatib berdi. 2016-yilgacha bo'lgan davr va hozirgi kundagi iqtisodiy raqamlarni solishtiradigan bo'lsak, o'rtadagi yirik tafovut va katta o'zgarishlarga guvoh bo'lamiz.

Mazkur dasturga a'zolikning navbatdagi muddatga uzaytirilishi, o'z navbatida, mamlakatga katta mas'uliyat yuklaydi. Islohotlar nafaqat o'tkazilishi, balki xalqni o'zi bilan yetaklay olishi lozim. O'zbekiston esa bu borada ham katta muvaffaqiyatlarga erishmoqda. Biz buni, ayniqsa, xususiy sektorda yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlarda kuzataymiz. Davlat iqtisodiyotdagi ulushini kamaytirib, xususiy sektorga keng yo'l ochib bermoqda. Xususiy, o'rta va kichik biznes korxonalarini soni keskin oshyapti. Bu esa O'zbekiston iqtisodiyoti yaqin va uzoq kelajakda yanada kuchli va raqobatbardosh bo'lishiga zamin yaratadi.

Mamlakatlarimiz o'rtasidagi savdo aloqalari ham uzviy rivojlanmoqda. Germaniyadagi O'zbekistonga ekspert hajmi so'nggi yillarda keskin oshdi. O'zbekistonda ham Germaniyaga import ko'lamini kengaytgan. Biroq bu hali mavjud imkoniyatlardan to'la foydalanilmoqda, degani emas. Sababi, O'zbekiston iqtisodiyoti bugun yanada zamonaviylashtirish, yanada diversifikatsiyalashishi kerak, deb o'ylayman. Buning uchun mamlakatda katta ishlar amalga oshirilmoqda, ya'ni Germaniyadan import qilinayotgan zamonaviy ishlab chiqarish texnologiyalari, uskunalar, mashinalar aynan mana shu maqsadlarga xizmat qiladi. Umid qilamanki, yaqin kelajakda mamlakat iqtisodiyotining ekspert quvvati yanada oshadi va albatta, O'zbekistondan Germaniyaga ekspert hajmi ham ko'payadi.

“Dunyo” AA
Berlin

O'zbekiston tashabbuslari amalda

Shu kunlarda poytaxtimiz yana bir nufuzli tadbirga mezbonlik qilmoqda. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi (MDH) hukumat rahbarlari kengashining qaroriga ko'ra, 2024-yilda Toshkent shahriga “MDH Yoshlar poytaxti” maqomi berilishi belgilangan edi. Ana shu xalqaro loyihaga bag'ishlangan tantanali marosim MDHga a'zo va kuzatuvchi mamlakatlar yoshlari, yoshlar siyosatiga mas'ul davlat organlari, NNT va jamoat tashkilotlari rahbarlari hamda vakillaridan iborat 200 dan ortiq delegatsiya a'zolarini jamladi.



TOSHKENT – MUSHTARAK MAQSADLAR MANZILI



Xorijiy delegatsiyalar a'zolarining birinchi manzili “Yangi O'zbekiston” bog'i bo'ldi. Ishtirokchilar bu yerda “Mustaqillik” monumenti poyiga gul qo'yib, bog' hududidagi daraxt ekish tadbirida qatnashdi.

Yoshlar bilan ishlash sohasidagi sa'y-harakatlarni birlashtirish, navqiron avlod vakillari salohiyatini rivojlantirish va xalqaro yoshlar hamkorligini takomillashtirish bo'yicha tajriba almashishga yordam berishni ko'zda tutuvchi mazkur tadbir yorqin voqealarga boy o'tmoqda.

Uch bosqichda o'tkazilishi ko'zda tutilgan xalqaro loyihaning birinchi bosqichi poytaxtimizdagi Yoshlar ijod saroyida tantanali ravishda tashkil etildi. “Toshkent — MDH yoshlar poytaxti” monumenti ochilishi ishtirokchilarni umumiy tirof etilgan tajribalar, yangi tashabbus va g'oyalari atrofida birlashtirdi. Tantanalari marosimda “Toshkent — MDH Yoshlar poytaxti” sertifikatini qabul qilib olindi.

Tadbir doirasida MDH Yoshlar kengashining navbatdagi yig'ilishi bo'ldi. Shuningdek, MDHga a'zo mamlakatlarning Jamoat birlashmalari yoshlar forumi o'tkazildi.

— Mamlakatimiz dunyo yoshlarini birlashtirayotgan markazga aylanib borayotgani yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar ifodasi bo'lish bilan birga shu Vatan farzandi sifatida qalbimizni g'urur-iftixorga to'ldiradi, — deydi Yoshlar ishleri agentligi direktori Alisher Sa'dullayev. — Ajudodlarimizning jonajon O'zbekistonimizni buyuk mamlakatga aylantirish g'oyasi, orzusi bugun ushlayotgandek. Qolaversa, “Toshkent — MDH yoshlar poytaxti” deb e'lon qilinishi bizni yanada faol va tashabbuskor bo'lishga undaydi.

Dunyoning turli nuqtalarida har xil notinchlig-u nizolar bo'lib turgan bir paytda Hamdo'stlik mamlakatlari yoshlarining poytaxtimizda jam bo'lishi yurtimizda navqiron avlodning

har tomonlama barkamol ulg'ayishi yo'lida ko'rsatayotgan g'amxo'rlikning xalqaro e'tirofidir.

O'zbekistonlik yoshlar tomonidan namoyish etilgan texnologik loyihalar taqdimoti, hunarmandchilik va tadbirkorlik ko'rgazmalari xorijlik mehmonlarda katta taassurot qoldirdi.

Yoshlar jamoat tashkilotlari forumi doirasida tashkil etilgan sessiyalar navqiron avlod vakillarini sifatli ta'lim, fan, innovatsiya, volontyorlik va ekologiya sohalar bo'yicha yangi tajriba, ma'lumot bilan tanishtirdi.

— MDH yoshlar poytaxti sifatida ilk bor Toshkent tanlangani bejiz emas. Bu barchamiz uchun alohida ahamiyatga ega, — deydi Qirg'iz Respublikasi madaniyat, axborot, sport va yoshlar siyosati vaziri o'rinbosari Marat Tog'ayev. — Chunki bugun O'zbekiston qanday taraqqiy etayotganini barchamiz ko'rib, kuzatib turibmiz. Mamlakatimizda yoshlarning sifatli ta'lim olishi, o'z iste'dodini yuzaga chiqarishi, salohiyatini namoyon etishi, sport bilan shug'ullanishi, mehnat qilishi uchun barcha shart-sharoit yaratilgan. Yoshlar bilan ishlash bo'yicha erishilgan salmoqli tajriba bugun ulkan ko'rsatayotgan natijalarda aks etmoqda. Xususan, mazkur tadbir ham yuqori darajada tashkil etilgan.

Yana bir manzil INNO texnopark bo'ldi. Mazkur texnopark yoshlarning o'z loyiha va g'oyalarni amalga oshirishi, rivojlantirishi uchun barcha sharoitlarga ega zamonaviy o'quv-ishlab chiqarish markazidir. Bu yerda mehmonlar texnologiyalar sohasida ish olib borayotgan yoshlar va tajribali mutaxassislar bilan tanishib, o'zaro fikr almashdi.

Risolat MADIYEVA,
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



2024-YIL YOSHLAR VA BIZNESNI
QO'LLAB-QUVVATLASH YILI

1991-2016-yillarda yoshlarga oid 25 ta qonun, farmon, qaror va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilingan bo'lsa, 2016-yildan 2024-yilgacha 100 dan ziyod me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilindi. Bu hujjatlarning barchasi yoshlarning orzu-istaklarini amalga oshirish, ularni qiynayotgan masalalarga yechim topishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

O'ZBEKISTON-TAJRIBASI

yoxud yoshlar siyosati sohasida shiddat bilan rivojlanayotgan mamlakat



Dilnozaxon KATTAXONOVA,
Yoshlar ishlari agentligi
direktorining
birinchi o'rinbosari,
siyosiy fanlar bo'yicha falsafa
doktori

hunar o'rganaman, tadbirkorlik qilaman, deb yonib turgan farzandlarimizga yanada keng yo'l ochib berish maqsadi ustuvor. Ushbu muhim hujjatning "Har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish" deb nomlangan birinchi yo'nalishi 44 banddan iborat bo'lib, shundan 25 dan ortiq'i bevosita yoshlar manfaatiga qaratilgani fikrimiz tasdig'idir.

Bu Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Yoshlar kelajagi bilan bog'liq har qanday vazifa birlamchi ahamiyatga ega", ekanini anglatadi. 2024-yil ham mamlakatimizda davlatimiz rahbari tashabbusi bilan "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili" deb nomlanib, yoshlar masalasida tariximizda misli ko'rilmagan islohotlarga qo'l urilmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida belgilangan yuksak va keng qamrovli vazifalar shundan dalolat beradi.



2020-yilda MDHga a'zo mamlakatlarning Yoshlar ishlari bo'yicha kengashiga, 2021-yilda esa Osiyoda o'zaro ishonch choralar bo'yicha kengashning Yoshlar bo'yicha kengashiga teng huquqli a'zo sifatida qabul qilindi.

So'nggi uch yilda davlatimiz rahbarining tashabbuslari bilan mamlakatimizda Markaziy Osiyo yoshlar forumi, SHHTga a'zo mamlakatlar yoshlar kengashining 15-yig'ilishi, SHHT mamlakatlari yoshlari o'rtasida "Eng yaxshi startap loyihasi" tanlovi, Turkiy davlatlar tashkilotining IV Yosh liderlar forumi o'tkazilib, Buxoro shahri birinchi turkiy dunyo yoshlar tashabbuslari poytaxti, 2022-yil turkiy dunyo "Yoshlar tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash yili", 2024-yilda Toshkent shahri birinchi MDH yoshlar poytaxti, deb e'lon qilindi.

Mamlakatimizda o'tkazilgan Markaziy Osiyo yoshlar forumi, Shanxay hamkorlik tashkiloti mamlakatlari yoshlari o'rtasida "Eng yaxshi startap loyihasi" tanlovi xorijiy mutaxassis va ekspertlar tomonidan yuqori baholandi.

Quvonarlisi, 2023-yildagi Yoshlar taraqqiyoti indeksiga (Bryussel) ko'ra, O'zbekiston 2023-yilda yoshlar siyosati sohasida eng tezkor sur'atlar bilan rivojlanayotgan mamlakat, deb e'lon etildi. Shu tariqa, yoshlar siyosati borasida dunyoning yetakchi mamlakatlari qatoridan o'rin oldik.

Jadal taraqqiy etayotgan mamlakatlar bilan hamqadam bo'lish, O'zbekistonimizning xalqaro hamjamiyatdagi nufuzini yanada mustahkamlash borasida oldimizda aniq vazifalar turibdi. Jumladan, BMTning "Iqlim o'zgarishi bo'yicha hadli konvensiyasi" doirasida Yoshlar konferensiyasi, "Markaziy Osiyo yoshlarining kun tartibi — 2030" dasturini ishlab chiqish bo'yicha BMT huzuridagi ishchi guruhning 1 yig'ilishi, Islom hamkorlik tashkiloti Yoshlar forumi, "Chegarasi imkoniyatlar sammiti", Toshkent shahri 2024-yilda MDH yoshlar poytaxti deb e'lon qilingani munosabati bilan o'tkaziladigan tadbirlar kabi ko'plab xalqaro forum va loyihalarni o'tkazish rejalashtirilmoqda.

"Yurtimizda hech bir yosh e'tibordan chetda qolmaydi" degan bosh tamoyil asosida bu yil ham sohada keng ko'lami islohotlar davom ettirilmoqda. "O'zbekiston — 2030" strategiyasini "Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturida vertikal boshqaruv asosida eng quyi bo'g'in — mahalladan boshlab yoshlar bilan ishlashni davom ettirish, "Yoshlar balansi", "Yoshlar daftari", "Besh tashabbus olimpiadasi" kabi loyiha va tizimlarda yangi g'oya va maqsadlarni amaliyotga jiddiy e'tibor qaratish, o'g'il-qizlarimiz zamonaviy kasb va sohalar o'zlashtirishi, biznes va tadbirkorlik borasidagi qobiliyatlarini ro'yobga chiqarishi uchun barcha mas'ul mutasaddilar, katta mablag'lar jalb etilmoqda. Ishonamizki, 2024-yilda yoshlar bilan ishlash, ularning orzu-untishlarini qo'llab-quvvatlash bo'yicha yana bir yangi davomni oshib o'tamiz.

Boshlanishi 1-betda

Prezidentimiz yoshlarga qaratgan "Sizlarni O'zbekistonda eng katta boyligi, bebaho xazinasi sifatida qadrlayman", deya ta'kidlaydi. Bu so'zlar mamlakatimizda olib borilayotgan yoshlarga oid siyosatning asl o'zagini tashkil etadi, desak yangilishmaymiz. Zero, Vatanimiz 19 milliondan ziyod yoshlarini asosiy boyligi deb biladi, ularga suyanadi. Shu bois, O'zbekiston xalqaro hamjamiyat tomonidan haqli ravishda "Yoshlar mamlakati" sifatida e'tirof etilmoqda.

Albatta, buning bir qancha omillari bor.

Mamlakatimiz tarixida yangi sahifa

Shiddatli taraqqiyot davrida yosh avlodning davlat oldiga qo'yayotgan talablari ortib borayotgan, kasb-hunar egallashi, oliy ma'lumot olish, bandlek masalalari o'tkirlashayotgan bir sharoitda barcha qatlam va toifadagi farzandlarimizni qamrab oladigan, muammolari bilan shug'ullanadigan, kerak bo'lsa, orzularini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadigan tizim yaratish nihoyatda zarur edi. Ayniqsa, yangi O'zbekistonni barpo etishdek shiddatli va uzoq maqsadli islohotlar sharoitida busiz ko'zlangan mamlakatlarni zabt etib bo'lmadiki.

Shu bois, Shavkat Mirziyoyev Prezident lavozimiga kirishganing ilk kunlaridan yoshlar siyosatida yangicha, ta'bir joiz bo'lsa, yanada xalqchil yondashuvni, otalarcha samimiy munosabatni ilgari surdi. Davlatimiz rahbari birinchi imzolagan hujjat ham "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonun bo'lib, ushbu muhim tarixiy hujjat yoshlar siyosatida tom ma'noda yangi davrni boshlab berdi.

1991-2016-yillarda yoshlarga oid 25 ta qonun, farmon, qaror va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjat qabul qilingan bo'lsa, 2016-yildan 2024-yilgacha 100 dan ziyod me'yoriy-huquqiy hujjat imzolandi. Bu hujjatlarning barchasi yoshlarning orzu-istaklarini amalga oshirish, ularni qiynayotgan masalalarga yechim topishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

Masalan, "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida"gi qonunda O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asosiy yo'nalishlarini belgilab beruvchi ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va tashkiliy chora-tadbirlar o'z aksini topdi. Yoshlarga oid davlat siyosatini amalga oshirishda ishtirok etuvchi har bir subyektning vakolatlari aniq belgilandi. Shu bilan bir qatorda, targ'ibot-tashviqot ishlaridan, asosan, amaliy vazifalarga urg'u berildi.

2017-yil 30-iyun kuni mamlakat yoshlari hayotida yangi sahifa ochildi. Yoshlarga oid davlat siyosatini izchil va samarali amalga oshirish maqsadida asosiy maqsadli yoshlarning barcha tashabbuslarini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan O'zbekiston yoshlar ittifoqi tashkil etildi. Bu sana mamlakatimizda "Yoshlar kuni" deb e'lon qilindi.

Jadal taraqqiyot asosi

O'zbekiston aholisi sezilarli darajada o'smoqda. Shunga muvofiq yoshlar nufusi ham oshdi. Bu, albatta, kishini quvonтиради. Negaki inson kapitali doim mamlakat taraqqiyotining ajralmas qismi bo'lib kelgan. Bugun zamonaviy dunyoda demografik muammolar sabab ishchi kuchining kamayishi oqibatida jozibador viza

takliflari oshayotgani bejiz emas. Shu ma'noda, O'zbekiston tez rivojlanayotgan mamlakatlar sirasiga qo'shildi. Bu, o'z o'rnida, yoshlar siyosatida yangi bosqichga chiqishni talab etadi. Ayni sabab tufayli yoshlar siyosatini samarali amalga oshirishning keyingi bosqichi yoshlar masalalariga e'tibor va muammolar yechimi davlat organi darajasidagi tashkilotni tashkil etish ehtiyojini vujudga keltirdi.

2020-yil Prezidentimizning "O'zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatini tubdan isloh qilish va yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni asosida O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi hamda uning Qoraqalpog'iston Respublikasi, viloyatlar, Toshkent shahar boshqarmalari va tuman (shahar) bo'limlari tashkil etildi.

Shu vaqtdan yoshlar bilan bog'liq soha va yo'nalishlarda yagona davlat siyosati, strategik yo'nalishlar va davlat dasturlarini ishlab chiqish hamda sohadaqonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirishga mas'ul "uzatdik darajasida"gi to'laqonli tashkilot faoliyat boshladi.

E'tiborli jihati, Yoshlar ittifoqi faoliyati ham saqlab qolindi. Chunki yoshlar manfaatlarini ifoda etuvchi nodavlat notijorat tashkilot yosh avlod vakillari tomonidan ta'sis etilgani hamda ularning o'ziga tegishli ekanini bilan ahamiyatli va muhimdir.

Hukumat esa yoshlarga oid davlat siyosatida ularni qo'llab-quvvatlagan holda yangicha yo'nalishdagi ishlariga jadal sur'at berdi. O'zbekiston sharoitida yoshlar bilan ishlash, yosh avlod vakillarining siyosiy, huquqiy ongi va madaniyatini yuksaltirish, ularni siyosiy jarayonlarga faol jalb etish orqali mustahkam fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish hamda ular uchun yangi imkoniyatlar yaratish maqsadida yurtimizda mullaqo yangicha tizim shakllantirildi.

Prezidentimiz barkamol avlodni tarbiyalash, ularning hayotga mustaqil qadam qo'yishi uchun barcha zarur sharoitlarni yaratishga qaratilgan kompleks chora-tadbirlarni belgilab berdi. Xususan, "bugun tug'ilgan bola ulg'ayib, har tomonlama barkamol voyaga yetib, jamiyatda o'z o'rnini topishi, keksayganda esa munosib farovon hayot kechirishi mumkin bo'lgan" yaxlit tizim strategiyasi ilgari surildi.

Bu strategiya, eng avvalo, shijoatli, kreativ, jamiyatdagi mavjud ijtimoiy muammolarga innovatsion yechimlar topa oladigan, yurt taraqqiyoti uchun yangi g'oyalarni ilgari suradigan tashabbuskor avlod vakillarini voyaga yetkazishga qaratiladi. Davlat va nodavlat tashkilotlar orqali yoshlarga oid siyosat samaradorligi va natijadorligiga erishish bo'yicha aniq vazifalar belgilab olindi.

Davlatimiz rahbarining tegishli farmon, qaror, farmoyish va topshiriqlari amalga oshirilishi bo'yicha nazorat va hisobdorlik Yoshlar ishlari agentligi zimmasidagi muhim vazifa etib belgilandi. Qisqa vaqtda bu tajriba o'z samarasini berdi.

Misol uchun, o'tgan yili agentlik tomonidan Prezidentimizning 11 ta farmonida belgilangan 40 ta, 34 ta qarorida belgilangan 162 ta, 2 ta farmoyishida belgilangan 24 ta, 18 ta yig'ilish bayonida belgilangan 65 ta topshiriq ijrosi sifatli

tashkil etildi. Rahbar va mas'ul xodimlarning faoliyatini eng muhim samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI) asosida baholab borish yo'lga qo'yildi.

Shuningdek, Prezidentimizning 2022-yil 19-yanvardagi "Mahallalarda yoshlar bilan ishlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq, yoshlar bilan ishlashning yangicha boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ular bilan ishlashning vertikal tizimini yaratish, yoshlar muammolarini bevosita mahallalarda hal etish, ta'lim muassasalarida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlar samaradorligini yanada oshirish maqsadida yoshlar yetakchisi lavozimi joriy etildi.

Barcha yoshlarga teng imkoniyatlar yaratib berish uchun "Yoshlar balansi" tizimi yaratildi. Bu borada bajarilgan ishlar samarasi o'laroq, yigit-qizlarning orzu-istaklari amalga osha boshladi. Birgina 2023-yilda "Yoshlar balansi" asosida yoshlarimiz uchta — "yaxshi", "o'rta" va "og'ir" toifalarga ajratib olindi. "Og'ir" toifadagi ishsiz, davlatning e'tibori va g'amxo'rlikiga muhtoj 400 mingga yaqin yoshga keng ko'lami yordamlar ko'rsatildi. Xususan, ular 133 nafar vazir va o'rinbosariga, 6622 nafar hokim, sektor va tashkilot rahbariga birkiritildi.

Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqqlashtirish bo'yicha respublika komissiyasi tomonidan 208 ta tuman (shahar), 832 ta sektor, 9448 ta mahallada yoshlar bilan ishlash holati birmabir o'rganildi. Amaliy choralar natijasida "og'ir" toifadagi 146 ming yosh "yashil" toifaga o'tkazildi.

Umuman olganda, mamlakat tarixida birinchi bor yoshlarning muammolari omnaviy tarzda amaliy yechim topa boshladi. "Yoshlar daftari" orqali ko'rsatiladigan yordam turlari soni 30 taga yetdi, murojaatlarni ko'rib chiqish muddati 30 kundan 5 kungacha qisqardi. Mahallalarda "fuqarobay" ishlash tizimiga o'tildi.

2023-yildan boshlab "Besh tashabbus olimpiadasi"ni 4 yo'nalishda — mahalla, maktab, professional ta'lim va oliy o'quv yurtlarida o'tkazish yo'lga qo'yilib, jami 11,7 million yigit-qiz qamrab olindi. Bu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 5,5 mingga ko'pdir.

Ijtimoiy-siyosiy faol qatlam shakllanmoqda

Ijtimoiy masalalari hal bo'lgan yoshlar siyosiy jarayonlarning faol ishtirokchisiga aylanayotgani kishini quvonтиради. Yigit-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini huquqiy asoslash, ularni bu borada ham qo'llab-quvvatlash choralarini kuchaytirildi. Jumladan, parlamentda yoshlarning o'rmini kengaytirish masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. 2020-yilda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi hamda Senat huzurida Yoshlar parlamentari tashkil etildi. O'tgan saylovda Yoshlar parlamenti 250 nafar a'zodan iborat tarkibda shakllantirildi.

Ular Qonunchilik palatasiga kiritilgan 32 ta qonun loyihasi yuzasidan asosli takliflar bildirib, qonunlar targ'ibotiga bag'ishlangan 128 ta tadbirlar, qo'mitalarning 20 dan ortiq nazorat-tahlil tadbirlarida faol ishtirok etdi. Bunday o'zgarishlar xalqaro tajribani o'rganishni ham taqozo etadi. O'zbekiston tajribasini o'troqlashtirish,

shu orqali tajriba almashish ham muhim. Shu bois, Yoshlar parlamenti a'zolari Rossiya, Qozog'iston, Misr, Belarus, Tojikiston va Qirg'iziston davlatlarida o'tkazilgan yoshlar masalasiga oid xalqaro tadbirlarda ishtirok etib, mamlakatimizda yoshlarga oid davlat siyosatining mohiyatini boshqa davlatlar yoshlariga yetkazdi.

Toshkent — MDH yoshlar poytaxti

Shu tariqa O'zbekistonning yoshlarga oid davlat siyosati chegaralari kengayib, xalqaro maydonga chiqmoqda.

Prezidentimiz 2017-yil 19-sentabr kuni BMT 72-sessiyasida yuksak minbardan turib, sayoramizning ertangi kuni, farovonligi farazdalarimiz qanday inson bo'lib kamolga yetishiga bog'liq ekanini, yosh avlodni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularning huquq va manfaatlarini himoya qilish borasidagi ko'p tomonlama hamkorlikni rivojlantirish zarurligini ta'kidlar ekan, shunday taklifni ilgari surgan edi: "O'zbekiston globallashtirish va axborot-kommunikatsiya texnologiyalari jadal rivojlanib borayotgan bugungi sharoitda yoshlarga oid siyosatni shakllantirish va amalga oshirishga qaratilgan umumlashtirilgan xalqaro huquqiy hujjat — BMTning Yoshlar huquqlari to'g'risidagi xalqaro konvensiyasini ishlab chiqishni taklif etadi".

Davlatimiz rahbarining 2021-yili BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46-sessiyasida Pandemiyaning yoshlar huquqlariga ta'siri to'g'risidagi rezolyutsiyani ishlab chiqish va qabul qilish to'g'risidagi taklif o'sha yildayoq qabul qilinib, amaliyotga tatbiq etildi.

Shuningdek, Prezidentimiz BMT Bosh Assambleyasi, Turkiy davlatlar tashkiloti, SHHT, Osiyoda hamkorlik va ishonch choralar bo'yicha kengash kabi tuzilmalarning oliy minbarlaridan turib, ilgari surgan 30 ga yaqin taklif va tashabbuslar tizimli ravishda amaliyotga joriy etib kelinmoqda.

O'zbekistonda olib borilayotgan yoshlarga doir davlat siyosati va uning amaliy natijalari jahon hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otmoqda. O'zbekiston 2018-yilda SHHT Yoshlar kengashiga,





Tahlil va taqqos

Joriy yil 8-9-aprel kunlari Prezidentimiz Jizzax viloyatiga tashrifi doirasida o'tkazilgan yig'ilishda so'nggi 7 yil mobaynida tadbirkorlikni rivojlantirishda erishilgan natijalar haqida ham gapirdi. Bu davrda Jizzaxda katta o'zgarishlar yuz berdi, viloyatga 5 milliard dollar investitsiya, jumladan, 3 milliard dollar to'g'ridan to'g'ri xorijiy investitsiya jalb qilindi, 2,5 mingta yangi korxonaga ishga tushdi.



Odil OLIMJONOV,
Iqtisodiy tadqiqotlar va islohotlar markazi bosh ilmiy xodimi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bu esa, o'z navbatida, 45 mingta yangi doimiy ish o'rni ochilishiga imkoniyat yaratdi. Tadbirkorlik bilan shug'ullanayotganlar soni 10,5 mingdan 20 mingga yetdi yoki deyarli 2 barobar oshdi. Islohotlarning muhim natijalaridan biri shundaki, bir paytlar agrar hudud bo'lgan Jizzax bugun sanoat rivojlangan viloyatga aylandi.

Shu bilan birga, viloyatda iqtisodiyotni yangi bosqichga ko'tarish, tadbirkorlikni rivojlantirish va aholi daromadlarini oshirish uchun mavjud salohiyatdan to'la foydalanilmayapti. Masalan, so'nggi uch yilda hududda yillik aylanmasi 1,10 va 100 milliard so'mdan yuqori korxonalar soni ko'paygan. Bu — ijobiy holat. Lekin o'rta korxonalar soni o'sish sur'ati kutilganidek bo'lmayapti.

Qishloq xo'jaligida o'ta muhim ko'rsatkich bir birlik ekin maydonidan olinayotgan mahsulot miqdoridir. Bu borada Jizzax viloyati respublika darajasidan qariyb 2 barobar past natija ko'rsatmoqda.

Viloyatda sanoatlashuv darajasi keskin o'zgarishi, asosan, 3 ta tarmoq hisobiga ro'y berdi. Ya'ni sanoatning 80 foizi avtomobilsozlik, to'qimachilik va qurilish materiallari hissasiga to'g'ri keladi. Juda katta imkoniyatlarga ega farmatsevtika, charm sanoati, metallurgiya, mebelsozlik, elektrotexnika kabi sohalarni rivojlantirishga e'tibor yetarli emas. Shu bois, viloyatda sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmida ularning hisssasi juda kam.

Ana shu kamchilik va xatar viloyatda yangi ish o'rnlari yaratish va tadbirkorlar safini kengaytirish, umuman olganda, tadbirkorlikning yanada kengroq rivojlanishiga to'sinlik qilmoqda.

Iqtisodiy turkibi

Tegishli idora va tashkilotlar vakillari viloyatga kelib, hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish holatini chuqur tahlil qildi, yutuq va kamchiliklari, kelgusi taraqqiyot uchun mavjud imkoniyat va zaxiralarni aniqladi.

FOYDALANILMAYOTGAN
IMKONIYATLAR

ULARNI ISHGA SOLISH IQTISODIY BARQARORLIK VA AHOLI FAROVONLIGINI YANADA YAXSHILAYDI

Ana shunday tadqiqotlar Jizzaxning 13 tumanida iqtisodiy turki beradigan yangi imkoniyat va zaxiralarni mavjudligini ko'rsatdi. Viloyat faollari bilan o'tkazilgan yig'ilishda davlatimiz rahbari ushbu imkoniyatlarni Zarbdor tumani misolida tushuntirdi va mutasaddi idoralarga ularni ishga solish uchun 130 milliard so'm ajratishga topshiriq berdi.

Zarbdor tumanida tadbirkorlar ko'targan muammolari hal qilish orqali 5 mingta ish o'rni yaratish mumkinligi ko'rsatib o'tildi. Masalan, "Zarbdor parranda" korxonasi 12 ta mahalladagi mingta xonadonga 1 million bosh jo'ja tarqatib, aholini tovuqchilikka jalb etish loyihasini ishlab chiqdi.

Bir qarashda bu soddagina tadbirga o'xshaydi. Lekin bunda aholi uzoqqa ishga qatnasmadan, o'z uyida daromadli ish bilan ta'minlanishi mumkinligi juda muhim. Qolaversa, bu loyihada nisbatan kam mablag' sarflab, katta natijalarga erishish imkoniyati mavjud. Chunki gap faqat mingta xonadonning har biriga mingtadan jo'ja berish va ularga zarur sharoitlarni yaratish haqida ketayotgani yo'q. Bu loyiha tadbirkorlikni rivojlantirish uchun ahamiyati juda katta. Binobarin, bugun jo'ja olgan mingta xonadon ichidan bir-ikkita yil ichida qanchasi yirik tovuqchi fermerlarga aylanib ketishi uchun sharoit yaratilmoqda.

Tumandagi DM-1 kanalidan suv ichadigan Istiqbol, Nurafshon, Namuna, G'alaba mahallalarida suv tejovchi texnologiyalar qo'llanilsa, dehqonlarning ming gektar yerida, shuningdek, tuman yoshlariga bo'lib berilgan 3 ming gektarda qovun yetishtirish va uni qayta ishlash orqali 28 million dollarlik eksport qilish imkoniyati yaratiladi.

Yana bir imkoniyat DM-3 kanali bilan bog'liq. Tumanning 12 ming gektar ekin maydoni aynan shu kanalidan o'zi oqar yopiq quvur usulida suv oladi. Lekin bu kanalning 160 kilometr qismi yaroqsiz bo'lib qolgan. Tegishli tashkilotlarga mazkur kanalni ta'mirlash loyihasini kelgusi yil investitsiya dasturiga kiritish topshirildi. Shunda 12 ming gektar ekin maydonidan qo'shimcha mahsulot olish mumkin bo'ladi.

"Zarbdor tekstil" korxonasi ayni paytda 800 kishi ishlaydi. Turkiyalik investor bu yerda yana ming o'rtni quvvatlamni ishga tushirish va eksportni 50 million dollardan oshirish rejalarni tuzgan.

Minglab yangi ish o'rnlari yaratadigan va mahsulotini xorijga eksport qiladigan bunday

korxonalarini qo'llab-quvvatlash mexanizmi yanada takomillashiriladi. Mutasaddilarga eksport hajmi 50 million dollardan oshgan korxonalariga aylama uchun 10 million dollar gacha resurs ajratishni yo'lga qo'yish bo'yicha ko'rsatma berildi.

Tuman hududidan Qo'qon — Jizzax avtomobil yo'li o'tgan. Mazkur yo'l chetidagi 55 gektar, Yangiobodagi 700 gektar eski pistazorlarni yangilab, 5 gektardan aholiga bo'lib berishga qaror qilindi.

Tumanda sotishga mo'ljallangan qator obyektlarga xaridor topilmayapti. Shu bois, hozirgacha sotilmay qolayotgan 10 ta va xususiy lashtirish dasturiga kiritilgan 6 ta obyektning boshlang'ich bahosini 10 foizgacha pasaytirib, 5 yilgacha bo'lib-bo'lib to'lash imkoniyatini berish topshirildi. Bu yo'l bilan kamida 200 ta yangi ish o'rni ochish, qo'shimcha katta miqdorda mahsulot va daromad yaratish mumkin.

Bu kabi choralar Zarbdor tumanida 5 mingta yangi ish o'rni, kamida 50 million dollarlik eksport, tuman byudjetiga qo'shimcha 80 milliard so'm tushum tushish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Demak, shunday tadbirlarni viloyatning barcha tumanlari bo'yicha o'tkazish katta natijalar beradi.

Tomorqadan 50 million so'm daromad olish manbai

Jizzaxda tomorqalardan samarali foydalanishni tashkil etish uchun mavjud 309 ta mahallaga lider tadbirkor — eksportchilar birkirillishi belgilandi. Lider tadbirkor — eksportchi uchun har bir mahalla ixtisoslashuviga asoslanib, tomorqadan 50 million so'm daromad keltiradigan moliyaviy xizmat paketi ishlab chiqildi.

Banklar lider tadbirkorlarga aylama uchun 3 yil muddatda 1,5 milliard so'mgacha kredit ajratadi, byudjet hisobidan agronom jalb qilish, o'qitish, mahallada yig'ish, saqlash va quritish punktlarini tashkil qilish uchun 1 milliard so'mgacha grantlar beradi. Xonadonlarga Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida 33 million so'mdan, "Biznes birinchi qadam" dasturi doirasida esa 17 million so'mdan kredit ajratadi.

Kam hosil berayotgan yerlar 50-100 gektardan yirik lot shaklida, qolgan 1-5 gektardan lotlarga bo'linib, meva-sabzavot ekadigan tadbirkorlarga beriladi. Yirik maydonda dehqonchilik

qiladiganlar qolgan kichik maydon egalari ham shu yo'nalishga tortishi choralarini ishlab chiqiladi.

Mana shu tadbirlar hisobiga viloyatda meva-sabzavot yetishtirish hajmi ikki yilda 3 million tonna, keyinchalik 5 million tonnaga ega chiqilishi reja qilingan. Bu mos ravishda qayta ishlash va eksportni ham 2-3 barobar oshirishga asos yaratadi.

Viloyatda tog'li va tog'oldi maydonlar nisbatan keng. Ularda joylashgan yaylovlarda chorvachilikni rivojlantirish uchun ulkan imkoniyatlar bor. Masalan, yiliga 20 ming tonna sut va 5 ming tonna go'shtni qayta ishlash loyihasi tayyorlangan, uning umumiy qiymati 28 million dollarga teng.

Bundan tashqari, Zomin, Zarbdor va Yangiobodda 11 mingta xonadonda angus zoti qoramolni ko'paytirib, sotib olish tizimini yo'lga qo'yish rejalari ishlab chiqilgan. Shu bois, yil yakunigacha mazkur loyihalarni amalga oshirish hamda Sharof Rashidov va Zarbdor tumanida bittadan yirik chorvachilik klasteri tashkil etish vazifasi belgilandi.

Investitsiya loyihalari

Xitoylik investorlar bilan viloyatda qurilish materiallari, kimyo, energetika, elektrotexnika, mashinasozlik, to'qimachilik va farmatsevtika yo'nalishlarida 4 milliard dollarlik 22 ta loyihani amalga oshirish rejalari ishlab chiqilgan. Buning uchun Zomin tumanida sanoat texnopark, Zarbdordagi Shodlik mahallasida Jizzax sanoat zonasi filiali, Zafarobodagi Chimqo'rg'on mahallasida va Sharof Rashidov tumanidagi To'qchilik mahallasida sanoat zonalarini tashkil qilindi.

Bino va inshootlar barpo etishda o'zimizda ishlab chiqarilgan qurilish materiallaridan foydalanishni kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Masalan, viloyatda ishlab chiqarilayotgan bazalt mahsulotlari ichki ehtiyojni to'la qoplaydi va uni katta miqdorda xorijga eksport qilish ham mumkin. Buning uchun mahalliy bazalt mahsulotlarni xalqaro sertifikatlaydigan o'tkazishga ko'maklashish, qurilish, irrigatsiya va kommunal xo'jaligidagi qurilish normalarida bazalt mahsulotdan foydalanishni ko'paytirish choralarini ko'rish taqozo etiladi.

Yevropa va rivojlangan davlatlardan olim va mutasaxxillar olib kelib, bu sohada ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish maqsadga muvofiq.

Prezidentimiz elektr jihozlari ishlab chiqarishni yo'lga qo'ygan "Mono elektrik" korxonasining kasanachilik asosida ko'zi o'z 250 yurtdoshimizni ish bilan ta'minlash rejasini namunalari tajriba sifatida qayd etdi. Mutasaddilarga bu borada Jizzax tajribasini kengaytirish, shu kabi kasanachilik loyihalarini ko'paytirish bo'yicha topshiriqlar berildi.

Yig'ilishda avtomobilsozlikda yirik uzelli yig'ish usulidan to'liq texnologik silka o'tilgani yaxshi natija bergani ta'kidlandi. Endi tarmoq rahbariyati oldida kelgusi uch yilda sohaga 1 milliard dollar investitsiya jalb qilib, avtomobil ishlab chiqarish quvvatini 100 mingga yetkazish, 10 mingta yuqori daromadli ish o'rni yaratish vazifasi turibdi. Kooperatsiya asosida 365 turdagi butlovchi qismlarni o'zimizda ishlab chiqarishni yo'lga qo'yib, mahalliy lashtirish darajasini 50 foizga yetkazish ham muhim.

Bu vazifalar ijrosi minglab odamlarni tadbirkorlar safiga qo'shishga imkoniyat yaratadi.

Xizmat ko'rsatish va uy-joy qurilishi sohasi — bandlik va farovonlik asosi

Xizmat ko'rsatishni kengaytirish yangi ish o'rnlari yaratish, aholi daromadlarini oshirish, tadbirkorlikni rivojlantirishda katta ahamiyatga ega. Jizzax viloyatida bu borada ham ishlatilmayotgan zaxira va imkoniyatlar ko'p. Masalan, 10 ta madaniy meros obyektida "turizm halqasi"ni yaratish, ularga turizm mahallasi maqomini berish, ushbu obyektlarga boradigan yo'llarni ta'mirlash ulardan foydalanish darajasini keskin oshiradi.

Ayni paytda xalqaro M-39 yo'lining viloyat hududidan o'tgan 98 kilometr qismidan kuniga 40 ming avtomobil qatnaydi. Bu yo'lining chetida bo'sh turgan yerlar tadbirkorlarga bo'lib berilsa, 20 ming aholini doimiy ish bilan ta'minlash mumkin.

Aydar-Amasoy ko'llar tizimida turizm uchun yetarli salohiyat bor. Afsuski, ushbu imkoniyatdan samarali foydalanish borasida ham sezilarli natija yo'q. Shu bois, uni ro'yogga chiqarish maqsadida hukumat komissiyasi tuziladi.

Aholiga uy-joy qurish va mahalla infratuzilmasini yaxshilash ham tadbirkorlikni rivojlantirishga katta hissa qo'shadi. 2024-yilda viloyatda 4,5 ming xonadonli 118 ta uy-joy qurish reja qilingan. Lekin davlatimiz rahbari bu yetarli emasligini qayd etib, uy-joy qurilishini ko'paytirish

topshiriq'ini berdi. Jumladan, Do'stlik tumanidagi barak uylar o'mida yangi uy-joy qurish tajribasi asosida qolgan tumanlardagi 2 mingga yaqin eski uylar o'mida 50 ming xonadonli zamonaviy uylar qurish dasturini tayyorlash va amalga oshirish vazifasi qo'yildi.

Zomin, Baxmal, Sharof Rashidov va Forishda ham uy-joy qurish dasturlari boshlanadi.

Joriy yil sentabr oyidan Sharof Rashidov, Paxtakor, Do'stlik va Mirzacho'l tumanlarini Jizzax shahri bilan bog'lovchi Irjar — Do'stlik — Jizzax yo'nalishida teplovoz qatnovi yo'lga qo'yiladi. Natijada ushbu tumanlardagi 450 ming aholining shaharga qatnashida yengillik yaratiladi.

Mahallalar infratuzilmasini yaxshilash, joylarda bog'cha va maktablar qurish, Jizzax shahridagi tibbiyot muassasalari va ko'priklarni ta'mirlash chora-tadbirlari yuzasidan ham mutasaddilarga aniq topshiriqlar berildi.

Umuman olganda, Jizzax viloyatida mahalla infratuzilmasini yaxshilash, biznesni qo'llab-quvvatlash, grantlar ajratish uchun qo'shimcha 300 milliard so'm ajratish belgilandi.

Kelgusi rejarlar yanada ulkan

Barcha viloyatlarda chuqur o'yilgan va aniq hisob-kitoblar asosida reja qilingan tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ular poytaxtda, saqlin kabinetlarda ishlab chiqilmayapti. Aksincha, Prezidentimiz viloyatlardagi tadbirkorlik obyektlarini o'z ko'zi bilan ko'rib, muammolar va ularni bartaraf etish bo'yicha yechimlarni tadbirkorlar hamda tegishli idoralarni rahbarlari bilan birgalikda joyida muhokama qo'yib, keyin qaror qabul qilmoqda.

Jizzax viloyatiga tashrif chog'ida ham davlatimiz rahbari Forish tumanidagi "Basalt Uzbekistan" klasteri va Sharof Rashidov tumanida qurilayotgan "Yangi O'zbekiston" massivini borib ko'rdi. Tuyoqli mahallasida xonadonlardan biriga kirib, tomorqadan samarali foydalanish, aholi turmush sharoiti va daromadlarini o'rgandi. "ADM Jizzax" avtomobil zavodi faoliyatini bilan tanishdi. Bu korxonaga yiliga 100 ming dona yengil avtomobil ishlab chiqarish quvvatiga ega.

Prezidentimiz "BMB Holding" kompaniyasining Sharof Rashidov tumanidagi agrologistika majmuasi faoliyatini va Zarbdor tumanidagi Lalimkor mahallasida rezavor mevalar yetishtirish loyihalari bilan ham tanishdi. Jizzax shahrida barpo etilgan kibersport arenasida yoshlar bilan uchrashdi.

Oxirgi besh yilda Jizzax viloyatiga 4 milliard dollardan ortiq investitsiya kiritilgan. 50 trillon so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilib, 861 million dollarlik mahsulot eksport qilingan.

Kelgusi rejarlar esa bundan ancha ulkan. Viloyatda 6 milliard 100 million dollarlik loyihalar rejalashtirilgan. Prezidentimiz ana shu loyihalarni amalga oshirishni mo'ljallagan bir guruh xorijiy va mahalliy tadbirkorlar bilan uchrashib, ularning taqdimotlari bilan tanishdi.

Tashrif chog'ida davlatimiz rahbari Jizzax viloyatida yirik sanoat va energetika obyektlari qurilishiga start berdi. Jumladan, G'allaorol tumanida metallurgiyaga ixtisoslashgan sanoat zonasini barpo etish boshlandi. U yerda armatura, po'lat shlar, quvurlar, avtomobil kuzovi va maxsus texnika vositalari ishlab chiqarishga oid 500 million dollarlik 7 ta loyiha mavjud bo'lib, jami 5 mingta ish o'rni yaratiladi.

Ikkinchi loyiha — Forish tumanida Xitoyning "China Poly Group" va "China Electric" kompaniyalari bilan hamkorlikda quriladigan quyosh elektr stansiyasi. Unga 350 million dollar sarflanadi, stansiya 500 megavatt quvvatga ega bo'ladi. Stansiyada yiliga 1,1 milliard kilovattsoat elektr energiyasi hosil qilinib, 450 ming xonadonning energiya ta'minoti yaxshilanadi. Stansiyaning dastlabki 200 megavattlik quvvati shu yil yakunida ishga tushiriladi.

Yaqin istiqbolida Sharof Rashidov, Forish va G'allaorol tumanlarida yana 1660 megavattli issiqlik, shamol va quyosh elektr stansiyalari qurish loyihalari tayyorlanmoqda.

Prezidentimizning barcha viloyatlarga tashriflarida tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha mana shunday loyihalar ishlab chiqilmoqda va ular izchillik bilan amalga oshirilmoqda. Shu tariqa tadbirkorlar safi kengaymoqda, minglab odamlar daromadli ish bilan ta'minlanmoqda. Pirovardida esa aholi turmush darajasi oshishiga zamin yaratilayotgi, tadbirkorlikning mamlakatimiz iqtisodiy rivojiga qo'shayotgan hisssasi tobora oshib boryapti.

Yangicha yondashuvlar

Navoiylik Shahzod To'raqulov yosh bo'lsa-da, ayni vaqtda oyiga 1500 dollar daromad topmoqda. — IT sohasiga kirib kelganimga ikki yildan oshdi. Dastlab maxsus kurslarga qatnab, soha sirlarini o'rgandim. Ayni vaqtda yoshlar texnoparkida o'z jamoamiz bor va biznesni rivojlantirish bo'yicha maxsus ilovalar, tadbirkorlar uchun veb-saytlar yaratamiz. Shuningdek, loyihamiz bor, ya'ni ITga qiziquvchi bilimli yoshlarga ishimizni o'rgatib, jamoamizga jalb etamiz va ularga ham o'z daromadiga ega bo'lishiga ko'maklashamiz. Dasturlash bo'yicha turli buyurtmalarni ham bajaryapmiz. Oyiga kamida 1000-1500 dollar va ayrim vaqtlarda undan ham ziyod daromad topmoqda-man, — deydi Shahzod.

1,5 MING DOLLAR MAOSH
Endi bu pulni uyda o'tirib topyapman

Navoiyda "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida 700 dan ziyod yosh uchun 5,3 milliard so'm kredit ajratildi. Viloyatda 30 dan ortiq nodavlat notijorat tashkilot va xususiy sektor tomonidan har yili 4 mingga yaqin yoshga IT sohada ta'lim berilmoqda. Umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilari uchun ham onlayn o'quv kurslar ochilib, 21 mingdan ziyod o'quvchi yosh o'qitilmoqda. Bu borada Navoiy shahridagi yoshlar texnoparkida ham tizimli ishlar yo'lga qo'yilgan va sohaga qiziquvchi yoshlar har tomonlama qo'llab-quvvatlanmoqda.

— Ayni vaqtda texnoparkda nafaqat viloyat markazi, balki olis hududlardan kelgan yoshlar ham soha bo'yicha bilim va ko'nikmalarni oshiryapti. Ular IT, robototexnika, lixotronika, grafik-dizayn, mobilografiya, marketing va sun'iy intellekt yo'nalishlarida ta'lim olyapti.

Bu borada rivojlangan davlatlar tajribalarini ham o'rganib, texnopark faoliyatiga tatbiq etyapmiz. Viloyatimizdagi tadbirkorlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yganmiz va ularga IT yo'nalishida rek-lama, marketing bo'yicha ko'mak berilmoqda. Hozir 500 dan ziyod yoshni qamrab olganmiz, — deydi Navoiy viloyati yoshlar texnopark direktori Abror Abdug'aniyev.

Hududlarda IT-park, axborot texnologiyalariga ixtisoslashtirilgan maktab hamda o'quv markazlari tashkil etilishi yoshlar uchun yaxshi imkoniyat. Ular tomonidan ilgari surilayotgan startap g'oyalari yurt taraqqiyotiga xizmat qilishi shubhasiz.

Jumladan, Xatirchi tumanida bir necha mahallada IT-markazlar ochilib, ularda sohaga qiziquvchi yoshlar xorijiy tillar bilan birgalikda veb va mobil dasturlash kabi yo'nalishlarda dastlabki bilimlarni egallamoqda.

Viloyat markazidan qariyb 250 kilometr uzoqda joylashgan Uchquduq tumanida ham bugun IT sohani o'rganayotgan, dasturlash ilmini yaxshi o'zlashtirib, daromad olishni boshlagan yoshlar soni kundan kunga oshib bormoqda. Tumandagi IT-parkda grafik-dizayn, dasturlash va ingliz tilini o'rganishmoqda. Bu yerda o'tgan yili 300 dan ziyod va "Bir million dasturchi" loyihasi doirasida esa 600 ga yaqin yosh sertifikatli bo'ldi.

Ijtimoiy daftarlarda ro'yxatda turgan ishsiz xotin-qizlarni ham ushbu sohaga jalb etishga alohida e'tibor qaratilib, daromad topishiga ko'maklashilmoqda. Ayni vaqtda o'quv markazini tamomlagan shu toifadagi 30 dan ziyod yosh onlayn frilanserlik qilib, daromad olishni boshladi.

— Axborot texnologiyalari sohasida yoshlarni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan qator loyihalarimiz bor. Misol uchun, birgina "Kelajak



kash egalari" loyihamiz doirasida o'tgan yili viloyat bo'yicha 800 dan ziyod yosh IT bo'yicha sertifikatlarga ega bo'ldi va ularning o'quv kurslari jarajatlari to'liq Yoshlar ishlari agentligi tomonidan qoplab berildi. Hozirgi kunda 1400 dan ziyod yosh IT yo'nalishida o'zini o'zi band qilgan va mustaqil daromadga ega. Ayni vaqtda "Bir mahalla — ikki nafar dasturchi" loyihasi ham amalga oshirilmoqda. Bunda xorijiy tillar

bo'yicha xalqaro sertifikatga ega yoshlarni ham IT yo'nalishida o'qitib, xalqaro logistika faoliyatiga jalb etish ko'zda tutilgan. Viloyatda ushbu loyiha asosida 200 ga yaqin yosh tahsil olishni boshladi, — deydi Navoiy viloyati Yoshlar ishlari boshqarmasi bosh mutasaxxisi Dilfuza Ne'matova.

G'olib ABDUSALOMOV,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

Ta'lim

TIBBIY TARAQQIYOT TAYANCHI



Madamin MADAZIMOV, tibbiyot fanlari doktori, professor

Andijon davlat tibbiyot institutida istiqbolli loyiha va tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash maqsadida ko'plab xorijiy ta'lim tashkilotlari bilan hamkorlik aloqalari yo'lga qo'yilmoqda. Endi xorijlik yetuk mutaxassislar o'quv jarayonlariga jalb qilinib, professor-o'qituvchi va talabalarining akademik mobillik dasturlari doirasida xorijga malaka oshirish hamda yangi bilimlarni o'zlashtirishga yuborilmoqda.

hamkorligi modelini shakllantirish, akademik almashinuv dasturlarini yanada rivojlantirish, qo'shma tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni amalga oshirish imkoniyatini beradi.

Joriy yilning mart oyida Germaniyaning Rostok universiteti urologiya klinikasi direktori, professor Oliver Hakenberg institutimizda mahorat darslari, ma'ruza, amaliy mashg'ulotlar o'tdi. Germaniyalik mutaxassislar professor-o'qituvchilarni bilan birgalikda murakkab jarrohlik amaliyotlarida ishtirok etdi.


Faqat bugina emas. 2023-yilning 29-30-noyabr kunlari Minsk shahrida o'tkazilgan "Belarus — O'zbekiston sog'liqni saqlash va tibbiyot ta'limi" forumida ikki mamlakat o'rtasida tibbiyotning qator sohalarda hamkorlikni mustahkamlash, tibbiy ta'lim va ilmiy sohalarida yangi loyihalarni yo'lga qo'yish masalalari muhokama qilingan edi. Belarusning Gomel davlat tibbiyot universiteti vakillari institutimizda bo'ldi. Uchrashuvda malakali mutaxassislar tayyorlashga qaratilgan "1+1" qo'shma ta'lim dasturi asosida klinik

sight" jamg'armasi asoschisi, Toshkentdagi MESCA Foundation-National Eye Institute direktori Nikki Hafezining tashrifi davomida mazkur institut hamda Andijon davlat tibbiyot instituti o'rtasida anglashuv memorandumini imzolandi. Unda tomonlar o'rtasida bilim va malaka almashinuv uchun mana shu sohada faoliyat yuritayotgan shifokor va talabalar o'zaro tajriba almashishi, ilmiy tadqiqotlar va izlanishlarni hamkorlikda olib borishi hamda jahon miqosida taqbiq etishi masalalari o'rin olgan.

Rossiyaning I.I.Mechnikov nomidagi Sankt-Peterburg davlat tibbiyot akademiyasi bilan mutaxassislar va talabalar almashinuvini rivojlantirish masalalarida o'zaro hamkorlikni yanada kengaytirish borasida tibbiy profilaktika yo'nalishida amalga oshiriladigan ishlar belgilab olindi.

O'sh davlat universiteti tibbiyot fakultetining 10 nafar talabasi institutimizdagi 4 haftalik mashg'ulotlarga jalb etildi.

Gospital pediatriya kafedrasini mudiri M.G.aniyeva AQSHning Chikago shahrida



ordinaturaning oftalmologiya yo'nalishini tashkil etish bo'yicha hamkorlik shartnomasi imzolandi.

Yangi o'quv yilidan klinik ordinaturaning oftalmologiya yo'nalishiga qabul qilinganlar o'qishning 1-bosqichini Andijon davlat tibbiyot institutida, 2-bosqichini esa Gomel davlat tibbiyot universitetida o'qiydi. Ikki oliy ta'lim muassasasi o'rtasida talabalar almashinuvini va tor soha mutaxassislarining malaka oshirishini yo'lga qo'yish masalalari bo'yicha ham kelishuvga erishildi.

Yasharish, yangilanish fasli xalqaro hamkorlar bilan uchrashuvlarga boy bo'lyapti, desam mubolag'a emas. Shveysariyaning "Light for

joylashgan Rosalin Franklin tibbiyot va fan universitetida "Bolalardagi yuqumli kasalliklar va bolalar immunologiyasi" yo'nalishlarida malaka oshirish dasturlarida ishtirok etib qaytdi.

Ko'lami keng loyihalar professor-o'qituvchilar va talabalar xorijdagi nufuzli tibbiyot oliygohlarida bilim va malaka oshirishi uchun yangidan yangi imkoniyatlar yaratmoqda. Asosiy maqsad yuksak salohiyatli, bilim va tafakkurga ega mutaxassislar tayyorlash orqali aholiga sifatli tibbiy xizmat ko'rsatishni yanada rivojlantirishdir. Bu yo'lga ishlash va izlanishlar uchun esa barcha shart-sharoitlar bor.

Bugunning gapi

Ta'lim o'rganish va tajriba almashish orqali bilim, ko'nikma va qadriyatlarini egallash, intellektual, ijtimoiy, hissiy va jismoniy rivojlanishni ta'minlash jarayonidir. U shaxsni muvaffaqiyatga, jamiyatga hissa qo'shishga va kasbiy yuksalishlarga tayyorlashda hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi.



INNOVATSION IJODKORLIK



Bahodir MA'MUROV, pedagogika fanlari doktori, professor

to'g'ri qarorlar qabul qilish qobiliyatini shakllantirishga erishish mumkin. Boisi, axborot tizimi shiddat bilan rivojlanayotgan, yoshlar ma'naviyati va kamolotiga salbiy ta'sir ko'rsatadigan ko'plab g'ayriinsoniy g'oyalarni va mafkuralarni atrofimizni o'rab olgan bir davrda davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek: "Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu — ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir. Ertangi kunimiz, Vatanimizning yorug' istiqboli, birinchi navbatda, ta'lim tizimi va farzandlarimizga berayotgan tarbiyamiz bilan chambarchas bog'liq".

Jahonda kechayotgan globallashuv jarayonida mamlakat va xalq taqdiri, inson manfaati ilm-fan, ta'lim-tarbiya samaradorligiga bog'liq bo'lib bormoqda. Shu bois, ta'limning barcha bo'g'inlarida uning mazmunini takomillashtirish, sifatini yaxshilash asosiy vazifa bo'lib qolayotir. Jumladan, oliy ta'lim tizimi zimmasiga jahon standartlariga javob beradigan, zamonaviy bilim va yuksak axloqiy fazilatlariga ega, mustaqil fikrlaydigan malakali kadrlarni tayyorlashni sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish vazifasi yuklangan.

Mamlakatimizda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari soni keskin oshdi. O'qitishning turli shakllari yo'lga qo'yildi. Bu esa o'z-o'zidan ular o'rtasida adolatli raqobat shakllanishiga ta'sir etmoqda.

Bu borada Buxoro davlat pedagogika institutida ham qator ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, dunyoning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik o'rnatish, o'quv jarayoniga ilg'or xorijiy tajribalarini joriy etish, ayniqsa, istiqbolli pedagoglar va ilmiy kadrlarni xorijning yetakchi ilmiy-ta'lim dargohlarida stajirovkadan o'tkazish va malakasini oshirish kabilarga alohida yondashilmoqda.

2023-yil davomida xalqaro hamkorlik doirasida 20 dan ortiq professor-o'qituvchimiz Turkiya, Germaniya, Finlandiya, Rossiyaning eng nufuzli 1000 ta OTM qatorida

Mamlakatimizda davlat va nodavlat oliy ta'lim muassasalari soni keskin oshdi. O'qitishning turli shakllari yo'lga qo'yildi. Bu esa o'z-o'zidan ular o'rtasida adolatli raqobat shakllanishiga ta'sir etmoqda.

turuvchi Hacettepe, Laybnit instituti, Nordik universiteti, Kerala amaliy fanlar universiteti, Qozon federal universitetlarida stajirovka o'tab, malaka oshirib keldi. M.V.Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti, Istanbul universitetidan xorijiy professor-o'qituvchilar ma'ruzalar o'qish uchun jalb qilindi.

Institut faoliyat boshlaganidan endigina uch yil bo'lganiga qaramay, ilmiy sohada sezilarli yutuqlarga erishildi. 2023-yil mobaynida 4 ta fan doktori (DSc), 23 ta falsafa doktori (PhD) himoyasi amalga oshirildi. Hozirgi kunda institutning ilmiy salohiyati 31,7 foizni tashkil qilayotgan bo'lsa, bu ko'rsatkichni yil oxiriga qadar 35 foizgacha ko'tarish rejasini ishlab chiqilgan.

Ta'limga "kecha va bugun" misolida qarash, bugungi ta'lim o'sib kelayotgan yosh avlodni zarur ko'nikma va malakalar bilan qurollantirish orqali ularning o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatli qadam tashlashi uchun muhim poydevor bo'lib xizmat qilayotganini ko'ramiz.

Xulosa qilib aytganda, ta'lim tizimida sifat va adolatga, innovatsiya va ijodkorlikka e'tibor qaratilishi, malakali mutaxassislar jahon miqosida raqobatbardoshligini ta'minlash bugungi va ertangi kun muvaffaqiyati garovidir.

Yangi avlod kadrlari

KELAJAKNI YARATISHDA TEKNOLOGLARGA EHTIYOJ KATTA



Oybek RO'ZIYEV, Toshkent o'qimachilik va yengil sanoat instituti o'qituvchisi

Ta'lim sifatini oshirish mamlakatimiz kun tartibida turgan eng muhim masalalardan biridir. Uning tagzaminida yurtimizni rivojlantirish qatoriga olib chiqadigan yetuk mutaxassislar yetishtirish vazifasi turibdi.

Texnolog kim va u nimalarni bilishi kerak?

Texnolog — ishlab chiqarishni texnologik tayyorlash bo'yicha qarorlar, ko'rsatmalar, farmoyishlar, uslubiy va me'yoriy materiallar asosida faoliyat yurituvchi shaxs. U mahsulotlarning dizayni yoki mahsulot tarkibini, mahsulot ishlab chiqarish, korxonaning texnik rivojlanish istiqbollari, texnologik jarayonlar va ishlab chiqarish rejimlarini loyihalash tizimlari va usullarini belgilab beradi.

Bu kabi vazifalarni bajarish uchun texnologdan quyidagi ko'nikma va bilimlar talab etiladi: asosiy texnologik jihozlar va uning ishlash tamoyillari,

eng yaxshi mahalliy va xorijiy texnologiyalarning texnik tavsiflari va iqtisodiy ko'rsatkichlari, standart texnologik jarayonlar va ishlab chiqarish rejimlari, xomashyo va tayyor mahsulotlarga qo'yiladigan texnik talablar, standartlar va texnik shartlar, yoqilg'i, energiya iste'moli standartlari, kompyuter yordamida loyihalash tizimlari asoslar, patent tadqiqotlarini o'tkazish tartibi va usullari, ixtiro asoslari, muhandislik va texnologiya obyektlarining texnik darajasini tahlil qilish usullari. Shuningdek, u zamonaviy hisoblash vositalari, aloqa va aloqa vositalari, texnologik jarayonlarni loyihalashda mehnatni tashkil etishga qo'yiladigan asosiy talablar, texnik hujjatlarini ishlab chiqish va bajarish bo'yicha ko'rsatmalar, shunga o'xshash mahsulotlarni ishlab chiqarishning



ilg'or texnologiyalari sohasidagi yetakchi mahalliy va xorijiy korxonalar tajribasi, iqtisodiyot va mehnat qonunchiligi asoslari, mehnatni muhofaza qilish qoidalari to'g'risida nazariy ilmiy va amaliy bilimlarga ega bo'lishi shart.

Fundamental bilim: ilmiy paradigma

Texnologiya yuklama ko'p, u sohada chuqur bilim, malaka va tajribaga ega bo'lishi zarur. Bilimni esa yosh texnolog o'z-o'zidan egallay olmaydi. Buning uchun talabalarda fundamental bilimlar bo'lishi lozim. Texnologlar uchun fundamental bilim fanlari fizika, kimyo, biologiya, informatika va matematikadir. Amaliy tajribadan kelib chiqib aytmoqchimizki, texnika yo'nalishida oliy ta'lim muassasalariga kirayotgan talabalar fizika fanini o'qimasdan ham talabalar safiga qabul qilinmoqda. Bunga sabab — boshlang'ich

baza, ya'ni maktab va litseylarda o'rgatilayotgan bilim oliy ta'limga kirish uchun yetarli emas. Masalan, bir fizik masalani yechishning bir necha usuli mavjud. Test masalasini tuzgan mutaxassisga bu yechim oson tuyuladi, lekin abituriyent uchun murakkab. Ushbu holat bir necha yildan buyon yuz berib kelgani sababli oliy ta'limga kirish uchun talabalar fizika fanini o'qimay qo'ydi.

Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan o'tkaziladigan test sinovlarida oliy ta'lim muassasalariga kirish uchun eng yuqori ko'rsatkich 189 ball. Texnika yo'nalishiga kirish uchun esa 56,6 ball (umumiy maksimal ballning 30 foizini tashkil qiladi) to'plama ham to'lov-kontrakt asosida qabul qilinishi mumkin. Ushbu ballni to'plash uchun abituriyent fizika fanini alohida o'qishi shart emas. Holbuki, 2021-yil 19-mart kuni Prezidentimizning "Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" q'rarori qabul qilingan. Qaror

ijrosini ta'minlash maqsadida oliy ta'lim yetakchi professor-o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarni o'zlashtirishdan orqada qolayotgan maktablarda soha fanlari bo'yicha dars o'tilishi maqsadga muvofiq bo'lardi. Bundan tashqari, oshkorlik davrida Bilim va malakalarni baholash agentligi tomonidan tuzilayotgan test materiallari oliy ta'lim muassasalariga tarqatilishi maqsadga muvofiq. Bu OTM professor-o'qituvchilari uchun ham manfaatlidir: bilimlar mustahkamlanadi, bundan tashqari, ular maktablarga borib tushuntiradigan materiallar tayyor bo'ladi, uzluksiz ta'lim tizimi ham o'zini namoyon qiladi. Saralash imtihoni vaqtida esa tarqatilgan misol va masalalarning raqami o'zgartirib berilsa, ishlashni bilgan abituriyent hech qiyinchiliksiz javoblarni topa oladi.

"Yashil" iqtisodiyot — "yashil" energiya

Texnologlardan energiyatejamkorlik bo'yicha alohida bilimlarga ega bo'lish talab etiladi. 2019-yil 21-mayda qabul qilingan "Qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanish to'g'risida"gi qonun ijrosini ta'minlash maqsadida barcha texnika oliy ta'lim muassasalarida energiya tejamkorligi yuzasidan fanlar kiritilishini taklif qilmoqchimiz. Chunki bu bilan talabalarda yurtimiz umumiy energiyasini tejash to'g'risida fikrlash madaniyati shakllana boshlaydi.

O'zbekistonda elektr energiyasi taqchilligi XXI asr avvalidayoq kuzatila boshlangan bo'lsa-da, bu masalaga keyingi yetti yilda alohida e'tibor qaratildi. Mamlakat ana shunday taqchillik sharoitida yashayotgani davlat darajasida tan olindi. Energetika sohasini modernizatsiyalashga doir yaxlit dastur doirasida 2019-2023-yillarda O'zbekiston Respublikasida qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirish konsepsiyasi ishlab chiqildi. Ushbu hujjat O'zbekistonda energiya ta'minoti manbalarini diversifikatsiyalash siyosatining tamal toshini qo'yib berdi, deyish mumkin.

Xulosa shuki, zamonaviy texnolog har tomonlama bilimni, tafakkurli bo'lishi zarur. Bunga tayyorgarlik, yuqorida ta'kidlaganimizdek, maktabdan boshlanadi. Fan o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarga aynan nimalarni o'rgatish, masalalarni qanday uslubda yechish bo'yicha malaka hosil qildirish uchun alohida mexanizm yaratish kerak. Shunda yoshlarimizda faqat biznes qilish orqali emas, balki kuchli texnolog bo'lish bilan ham yaxshi daromad topish hissi uyg'onadi. Kuchli texnologlarga ega davlatni esa butun dunyo tan oladi.



Shukuh

Bir haqiqatni hech qachon esimizdan chiqarmasligimiz kerak: mamlakatimizda madaniyat va san'at taraqqiy etmasa, jamiyat rivojlanmaydi.

Shavkat MIRZIYOYEV,
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti

EZGU TASHABBUSLAR

NATIJASI KUNDALIK

HAYOTIMIZDA AKS ETADI

Maqsad chiroyli hisobotlar yoki quruq statistika emas

Mamlakatimizda 15-aprel sanasi "O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va san'at xodimlari kuni" eib belgilanishi nafaqat ijod ahli mehnati qadrlanishi, balki soha taraqqiyotiga davlat miqyosidagi e'tiborning amaliy ifodasi bo'ldi. Zero, madaniyat va san'at boshqa sohalar rivojiga turtki beruvchi, yurtni dunyoga tez va keng tanituvchi qudratga ega. Bugun ham o'z taraqqiyot yo'lidan ildam borayotgan yangi O'zbekiston nomini butun olamga tarannum etishda ayni yo'nalish muhim o'rin tutmoqda.

— Keyingi 8-9 yilda madaniyat, san'at, ma'naviyat, ma'rifat, sportga katta e'tibor qaratilayotgani biz, soha xodimlarini behad mamnun etmoqda, — deya suhbatga qo'shiladi O'zbekiston xalq artisti, "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni sohibi Rajab Adashev. — Shuning uchun ham bugun mamlakatimizni butun dunyoga tanitadigan saviyali filmlar paydo bo'lyapti. Masalan, eng yangi texnologiyalar yordamida suratga olinayotgan "Bahodir Yalang'to'sh" filmi lavhalarini ko'rib, kinematografiyamiz yutuqlaridan g'ururlandim. O'zbek aktyorlariga xorijdan ham takliflar ko'paymoqda. O'tgan yili o'zim "Qirg'izfilm" studiyasi taklifi bilan "Behisht" filmida suratga tushdim.

Bundan tashqari, ozarbayjonlik Shirin Ahmedovning "Yuz qadam" filmida ota rolini o'ynadim. U 2023-yilda xalqaro kinofestivalda qisqa metrajli filmlar tanlovida birinchilikka loyiq topildi. Shuningdek, Moskvada o'tgan kinotanlovda "Eng yaxshi rol ijrochisi" nominatsiyasi va diplom bilan taqdirlandim. Fursatdan foydalanib, madaniyat va san'at fidoyilari, shu tizimdagi barcha xodimlarni kasb bayramlari bilan samimiy qutlayman.

Madaniyat vazirligi ma'lumotlariga ko'ra, o'tgan yili yurtimizda 149 ta kinomahsulot yaratilgan. "Seni sog'indik, bahor!", "Yoshlar va kino", "Yoshlar kinokarvoni" va mustaqilligimizning 32 yilligiga

bag'ishlangan kinokarvon aksiyalari o'tkazildi. Davr voqeiliklari, dolzarb masalalarni odamlarga tezkor yetkazishda kino san'ati muhim o'rin tutadi. Teatr san'ati esa ta'sirchanligi bilan yanada ahamiyatliroq. Keyingi paytlarda teatr muxlislari soni ham sezilarli darajada ortayotgani quvonarli. Shu yilning fevral-mart oylarida teatrlarimizga 30 mingdan ortiq tomoshabin tashrif buyurgani fikrimiz tasdig'idir.

— Davlatimiz rahbari madaniyat va san'at, jumladan, biz, teatr vakillariga barcha imkoniyatlarni yaratib berayotgan paytda nega maza qilib ishlamasligimiz kerak? — deydi O'zbekiston xalq artisti



Tesha Mo'minov. — Kasb bayramimiz nishonlanadigan kunlarni ko'rmagan san'atimiz fidoyilarining ruhlarini shod bo'lsin! Ular bilan o'zbek teatr san'ati hamisha

madaniyatni targ'ib qilish, ma'naviyat-ma'rifatni yuksaltirishda alohida o'ringa ega. Ayni paytda 837 ta madaniyat markazida faoliyat olib borayotgan to'garaklar soni 5250 taga, ularda qatnashuvchi yoshlar soni esa 52 mingga yetdi. Bu kichik ko'rsatkich emas. Ushbu markazlarda 5000 dan ortiq havaskorlar jamlangan. Madaniyat markazlari uchun yangi binolar qurish, rekonstruksiya qilish, kapital ta'mirlash va jihozlash ishlari ham vazirlikning doimiy e'tiborida. Chunonchi, bugungi kunga qadar 400 ga yaqin madaniyat markazlari ta'mirlanib, foydalanishga topshirildi.

"2021-2024-yillarda madaniyat markazlarining binolari kompleksini qurish va jihozlash bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi qaror loyihasi ishlab chiqildi. Loyihada 459 ta madaniyat markazini yangidan qurish, rekonstruksiya qilish va ta'mirlash rejalashtirilgan. Sohani raqamlashtirish maqsadida "Madaniyat markazlari" yagona portali yaratildi, "Milliy tanlovlar" platformasi ishga tushirildi. Chekka va olis hududlar aholisiga madaniy xizmat ko'rsatish maqsadida madaniyat bo'lmlari 110 ta "Damas" avtomobili bilan ta'minlandi.

— Tuman madaniyat b'limi tasarrufidagi 7 ta madaniyat markazi 227 ming aholiga xizmat ko'rsatadi, — deydi Kosonsoy tuman madaniyat bo'limi mudiri Gulnora Izzatullayeva. — O'tgan yili 16 "Zamondosh" madaniyat markazi 3 milliard 658 million so'm mablag' hisobiga kapital ta'mirlandi. Markaz 240 o'rinni tomoshalar zali, 10 dan ortiq mashg'ulot xonalari, 180 million so'mlik 31 turdagi musiqa asboblari bilan jihozlandi. Bu yerda 7 yoshdan 70 yoshgacha bo'lgan odamlar o'z qiziqishlaridan kelib chiqib, rubob, doira, estrada xonandaligi, raqs to'garaklarida shug'ullanishi mumkin.

Darhaqiqat, yaqin-yaqin gacha joylardagi tizim vakillarini moddiy-texnik imkoniyatlar yetishmasligi qiyin kelgan. Ayrim binolarning nurab qolgan ham rost. Aksariyat kimlarningdir boshqa maqsadlariga xizmat qila boshladi. Bugun hammasi boshqacha. Davlatimiz tomonidan madaniyat markazlari yana avvalgi fayzini topishiga, odamlarning ko'ngilochar maskaniga aylanishiga harakat qilinayapti.

Madaniyat vazirligi bergan ma'lumotlarga ko'ra, joriy yilda madaniyat markazlari hamda Bolalar musiqa va san'at maktablari 7 turdagi 1150 komplekt milliy musiqa cholg'ulari, madaniyat bo'lmlari 80

ta maxsus avtotransport vositasi, teatrlar 8 ta avtobus hamda 16 ta yuk maxsus avtotransport vositasi bilan ta'minlanadi. 140 ta badiiy havaskorlik jamoasiga musiqa cholg'ulari, sahna liboslari, texnik jihoz va uskunalar to'plami yetkazib beriladi va bu orqali ularning imkoniyati yanada kengayadi.

Joriy yil mamlakatimizning 50 dan ziyod turistik obyektlarda konsert-tomoshalar tadbirlari tizimi tashkil etilishi ko'zda tutilmoqda. Shuningdek, bu yil 8 ta davlatda "O'zbekiston madaniyati kunlari", Berlinda "Markaziy Osiyo madaniyati va san'ati kunlari", "2024-yil Samarqand Hamdo'stlik davlatlari madaniy poytaxti" deb e'lon qilingani munosabati bilan qator mamlakatlarda madaniyat, san'at va kino haftaliklari o'tkaziladi. Milliy madaniyatimizni xorijda faol targ'ib etish va ommalashtirish maqsadida tanliqli va munosib shaxslarga "O'zbek madaniyati elchisi" maqomini berish tizimi yo'lga qo'yildi.

Umuman olganda, bugun madaniyat va san'at sohasiga befarq bo'lmagan har qaysi yurtdoshimiz sohada mavjud kamchiliklar qatori o'zgarishlar, ijobiy natijalarni ham ayta oladi. Chunki bunga amaliy isbot ham, qonuniy asos ham yetarli. Soha vakillarining o'zlari ham turmush darajasi yaxshilangani, qator imtiyozlar berilayotganidan minnatdorligini bildiradi.

O'zbekiston va Tojikiston xalq artisti, "Mehnat shuhrati" ordeni sohibasi Matluba Dadaboyeva ayni kunda san'at va madaniyat xodimlariga qaratilayotgan e'tibordan ruhlanib shunday dedi:

— Bugun soha uchun yangi bir davr keldi, desak xato bo'lmaydi. Zero, shu paytga qadar madaniyat va san'at vakillarining alohida kasb bayrami bo'lmagan. Shunday bo'lsa-da, biz o'z sohamizga fidoyi bo'lganmiz va haligacha shundaymiz. Vaqt — oliy hakam, deganlari rost, ana shu mehnatlarimiz inobatga olindi. Nimaiki izlanish, yangilik qilamiz desak, katta yo'l, barcha imkoniyatlar mavjud. Bunday sharoitda faqat va faqat yurakdan ishlash, zavqlanib yashash kerak. Ayni paytda O'zbek milliy musiqa san'ati institutida saboq beraman, iste'dodi bilan biz, ustozlarimda shoshirib qo'yadigan yigit-qizlarga havas qilaman. Ularning qalbiga maqomning qudratini, milliy musiqalarimiz jonbaxshligini singdirib, ongu shuuriga mustahkam joylay olsak, maqomchilik, qo'shiqchilik san'atimizning ertasi yanada porloq bo'ladi.

Ha, san'at o'z sohiblaridan chinakam fidoyilik, xalqparvarlik, ayni damda har qachongidan-da vatanparvarlikni talab qiladi. Shu ma'noda maqolamizni madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekovning vatanparvarlikka yo'g'rilgan quydagi fikrlari bilan yakunlashni joiz topdik:

— Albatta, raqqamlar o'z yo'lga. Bizning maqsadimiz chiroyli hisobotlar yoki quruq statistika emas. Asosiy maqsadimiz — madaniyat va san'at sohasidagi yangi tashabbuslar natijasini, avvalo, xalqimiz o'z hayotida sezsin. Bugun murakkab bir davrda yashayapmiz. Turli davlatlar o'z g'oya va mafkurasi har xil yo'llar bilan singdirishga, eksport qilishga urinyapti. Ayniqsa, yoshlar ongini buzishga harakatlar kuchaygan. Buning zamirida qanday maqsadlar yotgani hammamizga ayon. Mana shunday sharoitda biz qo'l qovushirib o'tirsak, mafkuraviy maydonda bo'shliq qoldirsak, ertaga juda kech bo'ladi. Shuning uchun ham bugun "milliy kontent, milliy kontent", deb qayta va qayta jon kuydirilyapti. Biz jaholatga qarshi hamisha ma'rifat bayrog'ini baland ko'tarib kurashganmiz va bu eng to'g'ri yo'l. Yaqin o'tmishdagi jaded bobolarimiz hayoti va faoliyatida ham buni yaqqol ko'rish mumkin. Inson ilmi bo'lsa, madaniyatli, ma'rifatli bo'lsa, tarixini yaxshi bilsa, albatta, Vatanimi qadrlaydi, uni ardoqlaydi.



Munajat MO'MINOVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

2023-yilda Madaniyat vazirligi tomonidan mamlakatimizda qator xalqaro festival hamda konferensiyalar yuqori saviyada o'tkazildi. Iste'dodli xonanday sozandalar, O'zbekiston davlat filarmoniyasi ijodiy jamoalari xorijga 30 dan ziyod gastrol safarlarini amalga oshirdi.

Shuningdek, o'tgan yil davomida yurtimizda UNESCO, MDH, TURKSOY, ISESCO tashkilotlari bilan hamkorlikda 10 ga yaqin xalqaro tadbir tashkil etildi. MDH tomonidan "2024-yil Samarqand Hamdo'stlik davlatlari madaniyati poytaxti", ISESCO tomonidan esa "2025-yil Samarqand Islom dunyosi madaniyati poytaxti" deb tasdiqlandi.

Bugun soha vakillarini har tomonlama qo'llab-quvvatlash, yurtimizning jahon madaniyati makoniga faol integratsiyalashuvini ta'minlash bo'yicha keng qamrovli islohotlar amalga oshirilmoqda. Madaniyat va san'atning jamiyat hayotidagi ta'sirini oshirish yuzasidan qabul qilinayotgan farmon va qarorlar, ayniqsa, "Madaniy faoliyat va madaniyat tashkilotlari to'g'risida"gi qonun, Milliy madaniyatni yanada rivojlantirish konsepsiyasi sohaning huquqiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

O'tgan yil yakunida Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida ham madaniyat va san'at sohasini yanada rivojlantirish bo'yicha qator ustuvor vazifalar belgilab berildi. Shundan so'ng ikki muhim hujjat — Prezidentimizning "Aholiga madaniy xizmat ko'rsatish darajasini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" hamda "Nomoddiy madaniy merosni muhofaza qilish, ilmiy o'rganish va targ'ib qilishni rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorlari qabul qilindi. Bu hujjatlar faoliyatimizni yangi bosqichga olib chiqishda o'ziga xos dasturlamal vazifasini o'tamoqda, — deydi madaniyat vaziri Ozodbek Nazarbekov.

Sohada fidokorona mehnat qilayotganlarni rag'batlantirish maqsadida Madaniyat va san'at fidokori tomonidan "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni ta'sis etildi. O'tgan yili turli sana va bayramlar arafasida 250 ga yaqin soha fidoyilari ushbu ko'krak nishoni bilan taqdirlandi. Bu yil ham 15-aprel kuni 50 nafar madaniyat va san'at xodimi ana shunday e'tirofga sazovor bo'ldi. Madaniyat va san'at xodimlari kasb bayrami yurtimizning barcha hududlarida keng nishonlandi.

Davlatimiz rahbarining alohida e'tibori sohaga kirib kelayotgan ertamiz egalari qalbida ishonch tuyg'ularini mustahkamlagan bo'lsa, katta avlod vakillariga qayta kuch bag'ishladi, deysish mumkin.

Sohada fidokorona mehnat qilayotganlarni rag'batlantirish maqsadida Madaniyat va san'at fidokori tomonidan "Madaniyat va san'at fidokori" ko'krak nishoni ta'sis etildi. O'tgan yili turli sana va bayramlar arafasida 250 ga yaqin soha fidoyilari ushbu ko'krak nishoni bilan taqdirlandi.



"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

MUASSIS:
O'zbekiston Respublikasi
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 1162.

44543 nusxada bosildi. Qog'oz bichimi A2. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Boboravshan G'oziddinov
Musahhir: Malohat Mingboyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilibiz:
100060, Toshkent shahri,
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy

O'zA yakuni — 02:25 Topshirildi — 02:45